

O'zbekiston - Hindiston: ilmiy hamkorlik

Tarix fanida ilmiy izlanishlar samaradorligi va sifatini oshirishda xorijda saqlanayotgan tarixiy asarlar, hujjatlar va boshqa manbalarni tadqiq etish, xorijiy tillarni bilish muhim sanaladi. Fanlar akademiyasi Tarix institutida Hindistonning O'zbekistondagi elchisi Manish Prabat bilan uchrashuv bo'lib o'tdi.



Uchrashuvda Tarix instituti direktori Azamat Ziyo mamlakatimizda ilm-fan, ayniqsa, Institut faoliyatida bo'layotgan o'zgarishlar va berilgan imkoniyatlar, hind va o'zbek madaniyatining mushtarak jihatlari haqida so'z yuritib, O'zbekiston tarixi aks etgan xorijiy manbalarni tadqiq etish, qadimgi manbalar tilini biladigan mutaxassislar tayyorlash bugungi kunda Institut va tarix fani oldida turgan ustuvor vazifalardan

biri ekanligini ta'kidlab o'tdi. Buning uchun ilmga chanqoq yoshlarni sanskrit, hind va urdu tillaridagi manbalar bilan ishlash qobiliyatiga ega mutaxassis etib tayyorlash hamda ilmiy maktab yaratish zarurligi haqida so'z yuritildi.

Hindistonning O'zbekistondagi favqulodda va muxtor elchisi Manish Prabat mamlakatizning Hindiston bilan madaniy va tarixiy aloqalarining juda qadim ekanligini, so'nggi yillarda mamlakatlararo aloqalar yanada kuchayayotganligini ta'kidlab o'tdi. Ayniqsa, ikki mamlakatning o'xshash jihatlarini ochib beruvchi keng tarixiy tadqiqotlar amalga oshirish muhimligi va bunda elchixonaga amaliy yordamga tayyor ekanligini bildirdi.